

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY TARBIIYA VA SPORT


Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi.



Sport yuksak madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitibgina qolmasdan, barcha yurtdoshlarimizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.



2020- yilda sport inshootlari soni, birlikda




O‘zbekiston Respublikasida 2020- yil yakuniga ko‘ra jami 52105 ta sport inshootlari mavjud bo‘lib, shundan 27909 tasi (53,6 %) qishloq joylarida tashkil etilgan bo‘lsa, 24196 tasi (46,4 %) shahar joylarida joylashgan. Shuningdek, jami sport inshootlarining bir kunlik quvvati 2154,3 ming kishini, qishloq joylarida 1049,2 ming kishini (48,7 %) tashkil etsa, shahar joylarida esa 1105,1 ming kishiga (51,3 %) teng.

Jismoniy tarbiya va sport klublari soni jami 14661 tani tashkil etib, ulardan 51,4 % i (7537 tasi) qishloq joylari va 48,6 % i (7124 tasi) shahar joylari ulushiga to‘g‘ri keladi.

Sport inshootlarining hududlar kesimidagi tahlilidan ko‘rish mumkinki, sport inshootlarining soni jihatidan eng ko‘p qismi Farg‘ona – 5776 ta, Samarqand – 5586 ta va Qashqadaryo viloyatlarida – 5135 ta barpo etilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida esa aksincha, 1817 ta va 1567 tani tashkil etadi.




2020- yilda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar soni



Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar soni jami 6578,9 ming nafarni tashkil etib, ulardan 6188,2 nafari umumta’lim muassasalari, 35,0 ming nafari akademik litseylar, 157,9 ming nafari kasb-hunar kollejlari hamda 197,9 ming nafari oliy ta’lim muassasalari ulushiga to‘g‘ri kelgan.



2020- yilda sport seksiyasi va bo‘limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug‘ullanayotganlar, % da



Sport seksiyasi va bo‘limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug‘ullanayotganlar jami 2360,5 ming nafarga teng bo‘lib, shundan 874,3 ming nafarini (37,0 %) qizlar (ayollar), 1486,2 ming nafarini (63,0 %) o‘g‘il bolalar (erkaklar) tashkil etadi. Sport seksiyasi va bo‘limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug‘ullanayotganlarning umumiy soniga nisbatan 46,7 % i (1102,2 ming kishi) qishloq joylariga to‘g‘ri kelsa, 53,3 % i (1258,3 ming kishi) shahar joylari ulushiga to‘g‘ri kelgan.

Sport inshootlari turlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020- yilda mamlakatimizda jami 52105 ta sport inshootlari mavjud bo‘lib, ulardan, sport maydoncha va maydonlari – 40206 ta (77,2 %), sport zallari – 10950 ta (21,0 %), stadionlar – 415 ta (0,8 %), suzish basseynlari – 322 ta (0,6 %), otish tirlari – 142 ta (0,3 %), manejar – 23 ta (0,04 %) otchoparlar – 10 ta (0,02 %), hamda o‘q otish va stendga otish joylari – 37 tani (0,07 %) tashkil etgan.





2020- yilda sport inshootlari soni, birlikda



2020- yilda jami 352 ta sport-ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, shundan 309 tasi (87,8 %) shahar joylarida joylashgan bo‘lsa, 43 tasi (12,2 %) qishloq joylari ulushiga to‘g‘ri keladi. Faoliyat olib borayotgan sport-ta’lim muassasalarining turlari bo‘yicha tahlilidan ko‘rish mumkinki, bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni 252 ta, ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni 54 ta, ixtisoslashtirilgan maktab internatlari soni 17 ta, olimpiya zaxiralari kollejlari soni 15 ta, oliy sport mahorati maktablari soni 10 ta hamda olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni 4 tani tashkil etgan.



2020- yilda faoliyat ko‘rsatgan sport-ta’lim muassasalari, birlikda



Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, sport mashqlariga bo‘lgan ko‘nikmalarini oshirish uchun bir yilda bir marta “Alpomish” va “Barchinoy” testlari o‘tkazilib turiladi. “Alpomish” va “Barchinoy” testlarini topshirganlarning umumiy soni 3959,2 ming kishini tashkil etadi, ulardan 1843,9 ming nafari “Barchinoy” testlarini topshirgan. Ularning 15,5 % i Farg‘ona viloyati, 13,5 % i Namangan viloyati, 11,1 % i Toshkent viloyati, 0,7 % i Navoiy viloyati, 3,2 % Andijon viloyati, 3,5 % i Xorazm viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi.



2020- yilda hududlar bo‘yicha ta‘lim muassasalarida
“Alpomish” va “Barchinoy” testlarini topshirganlar soni,
ming kishi

	Jami	ulardan o‘quvchilar:			
		umumta‘- lim muassa- salarida	akademik litsey- larda	kasb-hunar kollejlarda	oliy ta‘lim muassasalarida
O‘zbekiston Respublikasi	3959,2	3676,4	25,8	83,2	83,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	275,0	266,0	1,6	1,5	5,9
viloyatlar:					
Andijon	124,3	109,6	1,5	11,0	1,9
Buxoro	333,1	307,5	4,3	9,4	11,4
Jizzax	166,0	158,3	2,1	1,7	1,1
Qashqadaryo	304,6	288,5	1,6	9,3	5,2
Navoiy	23,5	16,7	1,4	1,4	4,1
Namangan	516,0	495,8	0,7	13,9	5,6
Samarqand	297,3	270,1	2,5	4,1	4,0
Surxondaryo	231,2	197,4	-	9,1	9,9
Sirdaryo	163,0	150,0	0,8	2,1	2,5
Toshkent	429,6	367,1	1,1	6,3	10,8
Farg‘ona	584,7	571,7	0,2	7,7	2,7
Xorazm	177,4	165,4	2,0	4,9	3,7
Toshkent sh.	333,5	312,3	6,0	0,8	14,4

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarining maqsadi aholining barcha qatlamlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali ularni jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, jismoniy qobiliyati va harakat faolligini takomillashtirish, jismoniy va ruhiy barkamollikka erishtirish, mehnatga layoqatini oshirish, zararli odatlar hamda turli kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, sport musobaqalari orqali yoshlarda iroda, o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch kabi fazilatlarni mustahkamlashdan iborat.



2020- yilda hududlar bo‘yicha jismoniy tarbiya-sport
xodimlari soni, kishi

	Jismoniy tarbiya-sport xodimlari		Ulardan, trenerlar
	jami	ulardan, ayollar	
O‘zbekiston Respublikasi	53914	13513	14717
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3753	679	1212
viloyatlar:			
Andijon	4362	890	1222
Buxoro	3310	897	1246
Jizzax	2554	302	703
Qashqadaryo	4719	916	757
Navoiy	2415	728	764
Namangan	3482	692	1091
Samarqand	5119	1254	1361
Surxondaryo	4396	1047	722
Sirdaryo	2014	442	672
Toshkent	5117	1400	1438
Farg‘ona	5740	1463	1300
Xorazm	3585	1352	886
Toshkent sh.	3348	1451	1343





2020- yilda hududlar bo‘yicha sport - ta‘lim
muassasalari ishining asosiy ko‘rsatkichlari

	guruh (seksiya)lar soni, ming birlikda	shug‘ullanuvchilar umumiy soni, ming kishi	ulardan ayollar
O‘zbekiston Respublikasi	22,7	375,2	90,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,4	29,3	7,8
viloyatlar:			
Andijon	2,6	32,2	8,1
Buxoro	3,1	42,2	10,4
Jizzax	1,3	14,9	4,0
Qashqadaryo	0,3	25,4	5,5
Navoiy	1,7	20,8	5,3
Namangan	2,3	24,5	5,7
Samarqand	2,8	34,0	8,5
Surxondaryo	0,3	20,0	4,2
Sirdaryo	0,2	16,2	4,3
Toshkent	0,5	31,8	6,1
Farg‘ona	3,0	36,6	8,4
Xorazm	2,2	26,2	7,5
Toshkent sh.	2,0	21,1	4,8

Sport-ta‘lim muassasalari ishining asosiy ko‘rsatkichlaridan ko‘rinadiki, 2020- yilda respublikamizda jami guruh(seksiya)lar soni 22,7 mingtani tashkil etgan. Undagi shug‘ullanuvchilar soni esa, 375,2 ming kishi bo‘lib, shundan 24,1 % i (90,6 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

Hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda, guruh(seksiya)lar sonining eng yuqori ulushi 13,7 % Buxoro va 13,2 % Farg‘ona viloyatlariga, eng kam ulushi esa 1,3 % Qashqadaryo va 0,9 % Sirdaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda.



2020- yilda guruh (seksiya)larda olimpiya sport turlari bilan shug‘ullanuvchilar, ming kishi




Sport-ta’lim muassasalarining guruh (seksiya)larida olimpiya sport turlari bo‘yicha shug‘ullanuvchilar soni 276,1 ming kishini tashkil etgan. Shundan, suzish sport turi bo‘yicha shug‘ullanuvchilar 8,7 ming kishini, basketbol – 13,6 ming kishi, erkin kurash – 13,7 ming kishi, yengil atletika – 14,0 ming kishi, stol tennisi – 15,2 ming kishi, voleybol – 27,4 ming kishi, badiiy gimnastika – 22,4 ming kishi, futbol – 45,9 ming kishi va boshqa sport turlarida – 55,8 ming kishini tashkil etadi.

Olimpiya o‘yinlari – Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi vasiyligida har 4 yilda bir marta o‘tkaziladigan eng yirik xalqaro kompleks sport musobaqasidir. Olimpiya o‘yinlarida qo‘lga kiritilgan medal sportdagi eng yuqori yutuqlardan biri hisoblanadi.



2020- yilda guruh (seksiya)larda milliy sport turlari bilan shug'ullanuvchilar, ming kishi



2020- yilda sport-ta'lim muassasalarining guruh (seksiya)larida milliy sport turlari bilan shug'ullanuvchilar soni 43,2 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan 55,7 % i (24,0 ming kishi) kurash sport turi, 18,4 % i (8,0 ming kishi) belbog'li kurash, 14,6 % i (6,3 ming kishi) o'zbek jang san'ati hamda 11,2 % i (4,8 ming kishi) turon sport turi bilan shug'ullanuvchilar hisoblanadi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Sport turi – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi bo‘lib, u insonning sport musobaqalariga o‘ziga xos tarzda tayyorgarlik ko‘rishi bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini o‘tkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalarga, nizomga (reglamentga) ega bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, me‘yorlar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qismi.

Jismoniy tarbiyalash – yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon.

Milliy sport turlari – har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati va dam olish sharoiti asosida rivojlangan sport turi hisoblanadi.